

POMIDOR DALALARIDAGI BEGONA O‘TLARGA QARSHI ZENKOR ULTRA K.E GERBITSIDINI QO‘LLASHNING SAMARADORLIGI

Nasirov Baxtiyor Saloxiddinovich, q.x.f.d., professor

Orcid ID: 0009-0004-9322-9580

Tuychiev Kanat Irisbek o‘g‘li, magistr

Orcid ID: 0009-0007-0425-5915

Saloxiddinov Sardor Baxtiyor o‘g‘li, magistr

Orcid ID: 0009-0005-2972-7830

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada pomidorda uchraydigan begona o‘tlar va unga qarshi eng samarali va atrof-muhitga bezarar bo‘lgan gerbitsidlar qo‘llash bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan. Shu sabab pomidorda uchraydigan begona o‘tlarga qarshi samarali agrotexnik tadbirlarni, kimyoviy vositalarni qo‘llash va ekin hosilini saqlab qolish dolzarb hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: begona o‘tlar, pomidor, gerbitsidlar, qator oralariga ishlov berish.

Аннотация. В этой статье представлена информация о сорняках, встречающихся на томатных полях, и наиболее эффективных и экологически безопасных гербицидах для борьбы с ними. Очень важно применять эффективные агротехнические мероприятия, химические препараты против сорняков на томатных полях, чтобы сохранить и повысить урожайность.

Ключевые слова: сорняки, томаты, гербициды, междурядная обработка.

Abstract. This article provides information on weeds in tomatoes and the most effective and environmentally friendly herbicides for their control. Therefore, it is important to use effective agrotechnical measures and chemicals to control weeds in tomatoes and preserve crop yields.

Keywords: weeds, tomatoes, herbicides, inter-row cultivation.

Pomidor dalalaridagi begona o‘tlarga qarshi Zenkor ultra k.e gerbitsidini qo‘llashning samaradorligi. Pomidor ekini yuqori xo‘jalik ahamiyatga ega bo‘lib, respublikamizda unga bo‘lgan ehtiyoj juda ham katta, ammo uni yetishtirishda dalalarda o‘sadigan begona o‘tlar hosil miqdorini kamaytirib yuboradi. Pomidor ekinini yetishtirishda dalalarda olib boriladigan ishlar, jumladan, begona o‘tlarga qarshi kurash asosan qo‘l mehnati yordamida bo‘lganligi uchun, agrotexnologik tadbirlarni o‘z vaqtida amalga oshirishning imkoniyati bo‘lmaydi.

Begona o‘tlar sonini kamaytirish ekin hosilining ortishi va turli zararkunanda va kasalliklarning rivojlanishini pasaytiradi. Shu sabab pomidor begona o‘tlariga qarshi samarali kimyoviy vositalarni qo‘llash va ekin hosilini saqlab qolish dolzarb hisoblanadi.

Zenkor ultra sus.k. kimyoviy vositasi pomidordagi bir yillik ikki pallali va boshqali begona o‘tlarga qarshi 0,6-1,0 l/ga miqdorda qo‘llanildi.

Pomidor dalasida Zenkor ultra gerbitsidi aprel oyining ikkinchi o‘n kunligi boshlarida qo‘llanildi. Birinchi sug‘orishdan keyingi kultivatsiyadan oldin olingan hisob paytida kurmak nazorat variantida 15,7 dona/m² ga teng bo‘lgan. Olabuta 1 m² da 9,5 dona, ituzum 5,25 dona, semizo‘t 5,50 donaga teng bo‘lgan.

Super kankor 70% s.p. 0,5 kg/ga me‘yorda sepilgan variantda kurmakning soni 2,25 dona/m² ni tashkil etgan. Olabuta 1,20 dona/m², yovvoyi gultojixo‘roz 0,50 dona/m², ituzum 0,50 dona/m², semizo‘t 0,75 dona/m², jami 5,20 dona/m² ni tashkil etgan.

Zenkor ultra 0,6l/ga me‘yorda qo‘llanilgan variantda kurmakning soni bir metr kvadratda 3,50 donaga teng bo‘lgan. Bu preparat 0,8 l/ga me‘yorda sepilganda bu o‘tning miqdori 1,75 donani tashkil etgan.

Zenkor ultra e.k 0,6 l/ga me‘yorda qo‘llanilgan variantda erta bahorgi bir yillik begona o‘tlar guruhiga kiruvchi olabutaning soni

bir metr kvadratda 3,50, kech bahorgi bir yillik begona o‘tlarga mansub yovvoyi gultojixo‘roz 0,50 dona, ituzum 0,50 dona, semizo‘t 0,75 dona, jami bir yilliklar 8,25 donani tashkil etgan. Bu preparat 0,8 l/ga me‘yorda qo‘llanilgan variantda olabutaning soni bir metr kvadratda 1,75, yovvoyi gultojixo‘roz 0,50 dona, ituzum 0,50 dona, semizo‘t 0,50 dona, jami bir yilliklar 4,25 donani tashkil etgan.

Zenkor ultra e.k 1,0 l/ga me‘yorda ishlatilganda boshqa variantlarga nisbatan samaraliroq ta‘sir ko‘rsatgan. Bu variantda bir yillik begona o‘tlarning soni bir metr kvadratda quyidagicha bo‘lgan: qora kurmak 1,50 dona, olabuta 0,75 dona, yovvoyi gultojixo‘roz 0,50 dona, ituzum 0,40 dona, semizo‘t 0,35 dona, jami bir yillik begona o‘tlar 3,50 dona/m²ni tashkil etgan.

Ikkinchi hisob davrida Super kankor 70% s.p. 0,5 kg/ga me‘yorda sepilgan variantda kurmakning soni 1,25 dona/m² ga teng bo‘lgan. Olabuta 0,75 dona/m², yovvoyi gultojixo‘roz 0,75 dona/m², ituzum 0,50 dona/m², semizo‘t 0,25 dona/m², jami 3,50 dona/m² ni tashkil etgan.

Zenkor ultra 0,6l/ga me‘yorda qo‘llanilgan variantda kurmakning soni bir metr kvadratda 1,50 donaga teng bo‘lgan. Bu preparat 0,8 l/ga me‘yorda sepilganda bu o‘tning miqdori 0,75 donani tashkil etgan.

Tajriba dalasidagi birinchi hisob davrida o‘tkazilgan kuzatuvlarda aniqlanishicha nazorat variantiga nisbatan gerbitsidli variantlardagi begona o‘tlar soni keskin kamaygan. Super kankor 70% h.k. 0,5 kg/ga me‘yorda sepilgan variantda bir yillik begona o‘tlar 80,3-87,9% kamaygan.

Zenkor ultra e.k. 0,6 l/ga me‘yorda sepilganda samaradorlik 71,1-80,8%, bu preparat 0,8 l/ga me‘yorda ishlatilgan variantda 83,4-90,1% kamaygan. Zenkor ultra e.k. 1,0 l/ga me‘yorda sepilganda bir yillik begona o‘tlar boshqa variantlarga nisbatan

**“O‘SIMLIK LARNI HIMOYASI VA KARANTINIDA ILG‘OR TAJRIBALAR ASOSIDA
UYG‘UNLASHGAN HIMOYA TIZIMINI QO‘LLASH” MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLAR TO‘PLAMI**

agrokimyo.uzsci.uz karantinjurnali

1-jadval

**Gerbitsidlarning pomidor dalasidagi begona o‘tlar turlariga ta’siri
(Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani, 2015-2017 yy.)**

Variant raqami	Begona o‘tlar soni, dona/m ² .					
	kurmak	olabuta	yovvoyi gultojixo‘roz	ituzum	semizo‘t	jami
1.	15,7	9,5	7,50	5,25	5,50	43,1
2.	2,25	1,20	0,50	0,50	0,75	5,20
3.	3,50	1,75	1,25	0,75	1,00	8,25
4.	1,75	1,00	0,50	0,50	0,50	4,25
5.	1,50	0,75	0,50	0,40	0,35	3,50

2-jadval

**Gerbitsidlarning pomidor dalasidagi begona o‘tlar turlariga ta’siri
(2-hisob), (2015-2017 yy.)**

Variant raqami	Begona o‘tlar soni, dona/m ² .					
	kurmak	olabuta	yovvoyi gultojixo‘roz	ituzum	semizo‘t	jami
1.	7,20	4,20	4,50	3,50	3,00	22,4
2.	1,25	0,75	0,75	0,50	0,25	3,50
3.	1,75	1,25	1,25	0,75	0,75	5,75
4.	0,75	0,75	0,50	0,50	0,25	2,75
5.	0,70	0,65	0,35	0,35	0,20	2,25

3-jadval

**Gerbitsidlarning pomidor dalasidagi begona o‘tlar turlariga ta’siri
(3-hisob), (2015-2017 yy.)**

Variant raqami	Begona o‘tlar soni, dona/m ² .					
	kurmak	olabuta	Yovvoyi gul-tojixo‘roz	ituzum	semizo‘t	jami
1.	5,75	2,50	2,50	1,75	1,70	14,2
2.	1,00	0,50	0,50	0,50	0,30	2,80
3.	1,50	0,75	0,60	0,75	0,50	4,10
4.	0,75	0,50	0,50	0,35	0,25	2,35
5.	0,65	0,50	0,40	0,25	0,25	2,00

samaraliroq yo‘qotilgan. Bu variantda bir pallali va ikki pallali begona o‘tlarning soni nazorat variantiga nisbatan 85,9 -91,8 % kamaygan.

Demak, Zenkor ultra gerbitsidining 0,8-1,0 l/ga me‘yorlarda qo‘llanilganda pomidor vegetatsiyasining boshlarida (aprel, may oylari mobaynida) daladagi begona o‘tlarni 90,1-91,8% nobud etgan. Bu davrda gerbitsidning 0,6 l/ga me‘yori samaradorligi 80,8% tashkil etgan.

Zenkor ultra gerbitsidining samaradorligi ikkinchi hisob davrida 0,6 l/ga me‘yorda piyoz dalalarini bor yo‘g‘i 74,3% bir yillik begona o‘tlardan tozalagan. Bu davrda Zenkor ultra gerbitsidini 0,8 va

1,0 l/ga me‘yorda qo‘llanilgan variantlarda mos ravishda 87,7 va 89,9 % kamaygan.

Chunki aprel, may oyi davomida gerbitsid begona o‘tlarga kuchli ta’sir etganligining boisi bu davrda preparat hali umuman tuproqda parchalanmagan hamda tuproqning namligi gerbitsid ta’sirini to‘la namoyish qilishi uchun yetarli bo‘lgan.

Yangi gerbitsidning tegishli me‘yorlari tufayli pomidor dalasi amal davri davomida begona o‘tlardan deyarli xalos bo‘lgan. Oqibatda bir chopiq hamda bir marta qo‘l o‘tog‘i kam o‘tkazilgan, ularga sarflanadigan mablag‘ tejab qolingan va mahsulot tannarxi kamaygan.

ADABIYOTLAR:

1. Мухамаджонов М.В., Зокиров А.З. Ғўза агротехникаси. –Тошкент: Меҳнат, 2000. -179 б.
2. Назаров М., Мирзажонов Қ., Ибрагимов О., Исаев С. “Деҳқончиликнинг тежамкор технологиялари”. Тошкент., 2014. С. 96-97.
3. Орипов О., Лазоватская М. Бегона ўтларга қарши кураш. Ғўза агротехикасининг муҳим масалалари. -Тошкент: Меҳнат, 1989. -83 б.